

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Ibragimov Salohiddin Ochilovich

*Alfraganus universiteti NOTT "Menejment
va marketing" kafedrası PhD, dotsenti*

E-mail: sibragimov77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tarmoqning hozirgi rivojlanish holati statistik ma'lumotlar asosida baholangan, ishlab chiqarish jarayonlarida mavjud muammolar aniqlangan. Resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida qurilish materiallari sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, eksport salohiyati, energiya tejamkorlik.

Kirish

Bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tarmoq sanoat ishlab chiqarishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'atlariga, bandlik darajasiga hamda investitsion faollikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi, avvalo, qurilish sohasidagi umumiy o'sish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uy-joy qurilishi, infratuzilma obyektlari, sanoat binolari, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy soha obyektlari barpo etilishida asosiy resurs bazasini tashkil etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35-40 trillion so'm atrofida shakllanib, sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmida qariyb 5-6 foiz ulushni tashkil etgan. Nominal o'sish sur'atlari bilan bir qatorda fizik hajm indeksining 110 foizdan yuqori darajada qayd etilishi tarmoqda real ishlab chiqarish kengayganini ko'rsatadi.

Alohida mahsulot turlari bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Masalan, sement ishlab chiqarish hajmi yiliga o'rtacha 14-16 million tonnani tashkil etmoqda,

keramika plitkalar ishlab chiqarish 40 million kvadrat metrdan ortiqni, qurilish oynasi ishlab chiqarish esa 35 million kvadrat metrga yaqin ko'rsatkichni qayd etmoqda. Shuningdek, gipsokarton, quruq qurilish qorishmalari va polimer asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ham barqaror oshib bormoqda. Tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada ortib, yiliga 2 milliard AQSh dollariga yaqin mablag' o'zlashtirilmoqda. Eksport hajmi esa 600 million AQSh dollaridan oshib, asosiy eksport yo'nalishlari sifatida Markaziy Osiyo davlatlari, MDH mamlakatlari va ayrim Yaqin Sharq bozorlari shakllangan.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bino va inshootlarning energiya samaradorligini ta'minlash, ekologik xavfsizlik talablariga javob beruvchi materiallar ishlab chiqarish hamda mahalliy xomashyo asosida yuqori iste'mol xususiyatlariga ega, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish esa tarmoq samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Biroq, ishlab chiqarish quvvatlarining yetarli darajada modernizatsiya qilinmaganligi, ayrim texnologiyalarning eskirganligi, yuqori ishlab chiqarish xarajatlari va boshqaruv tizimlarining raqamlashtirish darajasi pastligi samaradorlikni oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, mavjud statistik ko'rsatkichlar asosida baholash hamda tarmoqni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini asoslab berishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Xorijiy tadqiqotlarda sanoat samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatida texnologik modernizatsiya, innovatsion rivojlanish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda energiya tejamkorlik mexanizmlari e'tirof etilgan. Ayniqsa, "Industry 4.0" konsepsiyasi doirasida raqamlashtirish, aqlli ishlab chiqarish tizimlari va resurslarni optimallashtirish samaradorlikni oshirishning zamonaviy instrumentlari sifatida baholanadi.

Rossiyalik olimlar A.A. Ugryumov, A.B. Voronin, L.S. Markova, V.P. Tretyak va boshqalar sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda investitsion faollik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirishning ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, tannarxni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan yoritilgan.

Mahalliy olimlardan Sh.N. Zaynutdinov, M.K. Ziyaev, R.I. Nurimbetov, I.X. Davletov, A.D. Metyakubov va boshqalarning ilmiy ishlari qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish hamda tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda tarmoqning xomashyo bazasini kengaytirish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillarini kompleks, tizimli va o'zaro bog'liqlikda baholash masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy omillar integratsiyasi asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.


Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va rivojlantirish yo'nalishlarini kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruxlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Qurilish materiallari tarkibiga kiruvchi nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, ular shisha va shishadan tayyorlangan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. 2023 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 27 965,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bundan tashqari, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi va unga a'zo korxonalar faoliyati tahlili so'nggi yillarda tarmoqda barqaror o'sish tendensiyasi shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, 2022-yilda 34,2 trillion so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlari 111,5 foizga bajarilgan. Tarmoqning mamlakat sanoatidagi ulushi 5,9 foizni tashkil etgan bo'lib, bu uning sanoat tarkibidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

2023-yilda esa ishlab chiqarish hajmlarining yanada oshgani kuzatildi. Jumladan, 38 mln kv.m qurilish oynasi, 87,1 mln kv.m gipsokarton, 15,5 mln tonna sement va 42 mln kv.m keramik plitka ishlab chiqarildi. Sohaga 2,1 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya yo'naltirilib, shundan 1,3 mlrd dollari xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga o'zlashtirildi. 2023-yilda eksport hajmi 645 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport tarkibida 27 foiz metall buyumlar, 10 foiz keramika mahsulotlari, 14 foiz PVX profil va plastmassa mahsulotlari, 8 foiz quruq qurilish qorishmalari ulushiga to'g'ri keldi.

2024-yil yakunlariga ko'ra tarmoqda o'sish sur'atlari saqlanib qoldi va ayrim yo'nalishlarda tezlashdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ishlab chiqarish hajmi 135 trillion so'mga yaqinlashib, fizik hajm indeksi 108 foiz atrofida shakllandi. Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari ham oshib, sement ishlab chiqarish 16 mln tonnaga, keramik plitka 45 mln kv.m ga, qurilish oynasi 40 mln kv.m ga yetdi. Investitsiyalar hajmi 2,5 mlrd AQSh dollariga yetib, xorijiy investitsiyalar ulushi yanada ortdi. Eksport hajmi esa 700 mln AQSh dollaridan oshdi, bunda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi kengaygani kuzatildi.

Mazkur ko'rsatkichlar tarmoqda investitsion faollik, modernizatsiya jarayonlari va eksport salohiyati izchil o'sib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, energiya

sig'imini kamaytirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini kompleks boshqarish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. (2-rasm)..



2-rasm. Eksport qilingan qurilish materiallari.

Manba: "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq tarmoqda mavjud texnologik va tashkiliy muammolar samaradorlikning to'liq darajada ta'minlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining ayrim korxonalarda past unumdorlik darajasida tashkil etilgani mahsulot hajmi va tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eskirgan uskunalar va texnologiyalar resurslardan noratsional foydalanishga olib kelib, energiya sig'imini oshirmoqda. Natijada mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlari ortib, ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik darajasi pasayadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi mahsulot sifati barqarorligini ta'minlashda muammolarni yuzaga keltiradi. Ayrim hollarda mahsulotlarning texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari zamonaviy qurilish talablariga to'liq mos kelmaydi. Bu esa innovatsion mahsulotlar ulushini kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tarmoqni modernizatsiya qilish jarayonida qator tizimli muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, asosiy vositalarning yuqori darajada eskirganligi, investitsiya resurslarining cheklanganligi hamda malakali kadrlar yetishmasligi ishlab chiqarish

samaradorligini oshirish jarayonini sekinlashtiradi. Shu bois, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini texnik-iqtisodiy tahlil qilish, modernizatsiya dasturlarini ishlab chiqish va investitsiya jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Samaradorlikni oshirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri innovatsion yondashuvlarni joriy etishdir. Xususan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamlashtirish mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hamda mahsulot sifatini barqarorlashtirish imkonini beradi. ERP, ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari va robotlashtirilgan liniyalar qoʻllanilishi jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Qurilish materiallarini 3D bosib chiqarish, kompozit va yuqori mustahkamlikka ega materiallar ishlab chiqarish kabi innovatsion texnologiyalar qoʻshilgan qiymatni oshirish imkonini beradi.

Ekologik omillar ham samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishda zararli emissiyalarni kamaytirish, filtrlash va tozalash tizimlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish zarur. Qurilish chiqindilarini qayta ishlatish orqali xomashyo xarajatlarini kamaytirish va issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish mumkin.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Texnologik modernizatsiya, innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda ekologik barqarorlikni taʼminlash tarmoqning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Xulosa

Oʻrganishlar natijasida qurilish materiallari sanoati samaradorligini pasaytiruvchi asosiy muammo va toʻsiqlar aniqlandi. Asosiy muammolardan biri - innovatsiyalarning etarli emasligi va ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi. Bundan tashqari, zamonaviy boshqaruv jarayonlarining yoʻqligi, avtomatlashtirishdan yetarlicha foydalanilmayotgani ham soha samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgani aniqlandi. Tadqiqotning asosiy natijalari bu muammolarni aniqlash va qurilish materiallari sanoati samaradorligini oshirish uchun ularni hal qilish zarurati hisoblanadi.

Shu boisdan qurilish materiallari sanoati samaradorligini oshirish boʻyicha bir qancha tavsiyalarni keltirib oʻtishimiz mumkin:

- birinchidan muammolar aniqlanib, qurilish materiallari sanoati samaradorligini oshirish bo'yicha qator tavsiyalar berish;
- sohada innovatsion jarayonlarni faollashtirish va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish;
- yangi boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun avtomatlashtirishdan foydalanishga e'tibor qaratish;
- samaraliroq va raqobatbardosh qurilish materiallarini yaratish uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarmoya kiritishni ko'paytirish.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik ham qurilish materiallari sanoati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida" PF-158-son [Farmoni](#)
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi Yozbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.** <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 23 maydagi PF-4335-sonli farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2022 y. PQ-139-son "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
5. Sh.N.Zaynutdinov Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentabr, 2011 yil
6. M.K. Ziyaev O'zbekistonda mustaqillik yillarida qurilish sohasining tiklanish va rivojlanish bosqichlari. Memorchilik va qurilish muammolari SamGASI 2016
7. R.I.Nurimbetov Toshmuxammedova K.S. Qurilish industriyasida innovatsion boshqarish usullarini joriy etishga ta'sir etuvchi omillar //Arxitektura. Qurilish. Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, Izdatelstva TASI; Toshkent, 2016 №2.
8. I.X.Davletov Qurilish iqtisodiyoti. TAQI Toshkent 2019
9. A.D Metyakubov Upravlenie resursnoy bazoy i investitsiyami v proizvodstve stroitel'nykh materialov. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES Volume: 03 Issue: 10 - Oct 2022 ISSN: 2660-5317 <https://cajotas.centralasianstudies.org>
10. S.O.Ibragimov "Respublikamizda qurilish materiallari sanoatini rivojlanish tendensiyalari"// Arxitektura, Qurilish va Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, TAQU. Toshkent, 2023 №4.

- 11.Saidov Mash'al Samadovich (2021) Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish. *Ekonomika i obrazovanie* №4. 2021/8/30
- 12.S.O.Ibragimov "Qurilish materiallari ishlab chiqarishda innovasion klasterlarni tashkil qilishni rivojlantirish istiqbollari "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integrasiyasi asosida ilm-fan va innovasion yutuqlarni takomillashtirish istiqbollari" 197-202 b. SamDAQI 2021-yil.

